


IV. INVESTITSIYALAR VA QURILISH

2023- yil yanvar - mart oylarida viloyatning iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarini rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 1668,2 mlrd. so‘m miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar kiritilib, 2022- yilning shu davriga nisbatan 108,0 % ni, shundan xorijiy investitsiyalar va kreditlar 845,6 mlrd. so‘mni (jamiga nisbatan ulushi 50,7 %) tashkil etdi.


2023- yil yanvar - mart oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning o‘sish sur’atlari




2023- yilning yanvar– mart oylarida jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning deyarli yarmidan ko‘pi, ya’ni 61,0 % viloyatning 4 ta hududi hissasiga to‘g‘ri keladi, jumladan, Urganch shahri 27,1 %, Qo‘shko‘pir tumani 14,6 %, Xiva tumani 10,6 %, Shovot tumani 8,8 %.

Viloyatning ayrim tumanlarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi. Jumladan, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan Qo‘shko‘pir tumanida 142,4 martaga, Urganch tumanida 2,4 %, Shovot tumanida 2,6 % va Xiva tumanida 5,3 % o‘sish kuzatildi.

Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar



Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar (% da)



2023- yilning yanvar–mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar Urganch shahrida 3004,4 ming so'm (124,9%), Xiva tumanida 1157,3 ming so'm (526,4 %) va Qo'shko'pir tumanida 1354,7 ming so'm (140,1 %) darajada qayd qilindi.

Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar
 (2023- yil yanvar – mart oylarida)

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>o‘sish sur’ati, %</i>	<i>yakunga nisbatan %</i>
--	-------------------	--------------------------	---------------------------

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	1668,2	108,0	100,0
--	---------------	--------------	--------------

shu jumladan:

Markazlashgan investitsiyalar:	278,0	3,3m.	16,7
---------------------------------------	--------------	--------------	-------------

byudjet mablag‘lari	127,5	4,4m.	7,6
---------------------	-------	-------	-----

Suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi	9,7	169,2m.	0,7
---	-----	---------	-----

tiklanish va taraqqiyot fondi mablag‘lari	-	-	-
---	---	---	---

hukumat kafolati ostida chet el kreditlari	140,8	4,5m.	8,4
--	-------	-------	-----

Markazlashmagan investitsiyalar:	1390,2	95,2	83,3
---	---------------	-------------	-------------

korxonalarning o‘z mablag‘lari	332,2	75,1	19,9
--------------------------------	-------	------	------

aholi mablag‘lari	318,9	102,0	19,1
-------------------	-------	-------	------

xorijiy investitsiya va kreditlar	704,8	139,2	42,3
-----------------------------------	-------	-------	------

shundan:

to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya	357,8	107,0	21,4
---	-------	-------	------


tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari	34,2	17,2	2,0
--	------	------	-----

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarda markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarning ulushlari




Viloyatda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarda markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarning ulushlari 2022- yil yanvar-mart oylarida mos ravishda 5,4 % va 94,6 % ni tashkil qilib, ushbu ko‘rsatkichlarning ulushlari o‘tgan yilning shu davrida 16,7 % va 83,3 % ni tashkil qildi.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari (ulushi % da)



2022- yilning shu davri bilan solishtirganda O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy investitsiyalar ulushi 1,8 %, va mos ravishda Respublika byudjeti mablag‘larining ulushi 7,4 % punktga ko‘paygan.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashmagan moliyalashtirish manbalari (ulushi, % da)



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi


	Jami investitsiyalar mlrd. so'm	Shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha: (mlrd. so'm)					
		Respublika byudjeti	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi i	Korxonalar va aholi mablag'i	Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armusni
Xorazm viloyati	1668,2	127,5	9,8	651,1	34,2	845,6	-
<i>Shahar va tumanlar:</i>							
Urganch sh.	451,5	60,0	0,1	201,1	4,0	186,2	-
Xiva sh.	50,6	2,3	0,0	28,6	1,7	18,1	-
Bog'ot	40,1	3,4	1,5	29,4	2,4	3,3	-
Gurlan	59,4	4,1	0,0	29,1	2,2	24,0	-
Qo'shko'pir	242,8	16,2	0,0	123,4	2,4	100,7	-
Urganch	142,5	4,2	0,0	62,5	4,0	71,8	-
Hazorasp	55,4	3,9	2,9	31,5	1,3	15,8	-
Tuproqqa'l'a	27,0	4,1	0,9	16,5	2,5	3,0	-
Xonqa	91,4	7,2	3,5	25,9	4,3	50,5	
Xiva	176,1	0,8	0,0	23,7	3,4	148,3	-
Shovot	146,8	13,0	0,0	24,3	1,4	108,1	-
Yangiariq	106,3	1,9	0,7	20,7	1,9	81,1	-
Yangibozor	78,3	6,4	0,0	34,4	2,8	34,7	-

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2023- yilning yanvar–mart oylarida
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi**

	<i>mldr. so'm</i>	<i>Jamiganisbatan % da</i>
Jami:	1668,2	100,0
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	237,8	14,3
Ishlab chiqarish sanoati	514,5	30,8
Qurilish	79,5	4,8
Ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	34,7	2,1
Tashish va saqlash	136,2	8,2
Ta'lim	25,0	1,5
Jami faoliyat turlaridan tashqari: turar joy qurilishiga investitsiyalar	206,7	12,4
Boshqa faoliyat turlari	433,8	25,9

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 65,7 % dan ortig'i quyidagi iqtisodiy faoliyat turlariga yo'naltirildi: ishlab chiqarish sanoati (30,8), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (14,3 %), jami faoliyat turlaridan tashqari: turar joy qurilishiga investitsiyalar (12,4 %) va tashish va saqlash sohasi (8,2%).

2023- yilning yanvar – mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibi



Asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar

2023- yilning yanvar– mart oylarida 845,6 mlrd. so‘m (dollar ekvivalentida 75,2 mln. AQSH dollar) yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 176,6 % asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar o‘zlashtirildi.


Xorijiy investitsiya va kreditlarning eng katta ulushi Urganch shahrida (22,0 %), Yangiariq tumanida (9,6 %) va Qo‘shko‘pir tumanida (11,9 %) kuzatildi.

**Xorijiy investitsiyalarni o‘zlashtirish,
kreditlarni qo‘shgan holda**

Shahar va tumanlar nomi	Xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirildi, mlrd. so‘m		Xorijiy investitsiyalar, nisbatan % da	
	jamii	shu jumladan, kreditlar	jamiga	asosiy kapitalga investitsiyalar
Xorazm viloyati	845,6	487,8	100,0	176,6
<i>shahar va tumanlar:</i>				
Urganch sh.	186,2	54,8	22,0	38,9
Xiva sh.	18,1	6,3	2,1	3,8
Bog‘ot	3,3	3,3	0,4	0,7
Gurlan	24,0	24,0	2,8	5,0
Qo‘shko‘pir	100,7	100,7	11,9	21,0
Urganch	71,8	71,8	8,5	15,0
Hazorasp	15,8	15,8	1,9	3,3
Tuproqqał'a	3,0	3,0	0,4	0,6
Xonqa	50,5	50,5	6,0	10,6
Xiva	148,3	148,3	17,5	31,0
Shovot	108,1	0,0	12,8	22,6
Yangiariq	81,1	9,3	9,6	16,9
Yangibozor	34,7	0,0	4,1	7,3

Viloyatda xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 176,6 % ni tashkil qildi. Eng ko‘p ulushlar Qo‘shko‘pir tumani (21,0 %) va Urganch shahriga (38,9 %) to‘g‘ri keladi. Eng kam ulush Tuproqqał'a tumaniga (0,6 %) to‘g‘ri kelmoqda.

Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirish (mlrd so'm)



Jami o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar umumiyligi hajmiga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 8,4 % yoki 140,8 mlrd so‘mni, xorijiy investitsiya va kreditlar – 42,2 % yoki 845,6 mlrd so‘mni, shundan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya 357,8 mlrd so‘mni tashkil qildi.

Ijtimoiy soha obyektlarini qurish

2023- yil yanvar-mart oylarida umumiyligi maydoni 174,0 ming kv.m. bo‘lgan 667 ta (2022- yilning yanvar- martiga nisbatan 120,4 %) shu jumladan qishloq joylarida 156,0 ming kv.m. (136,3 %) uy-joy foydalanishga topshirildi. Turar joy qurilishiga o‘zlashtirilgan investitsiyalar 206,7 mlrd. so‘mni yoki jami investitsiyalardagi ulushi 12,4 % ni tashkil qildi.

2023- yil yanvar – mart oylarida ishgaga tushirilgan turar joylar

	<i>Barcha moliyalashtirish hisobidan:</i>			
	<i>Ishgaga tushirildi</i>		<i>Ulardan yakka tartibdagi turar joylar</i>	
	<i>ming kv.metr</i>	<i>2022- yil mos davriga nisbatan % da</i>	<i>ming kv.metr</i>	<i>2022- yil mos davriga nisbatan % da</i>
Xorazmviloyati	174,0	120,4	174,0	120,4
<i>Shahar va tumanlar:</i>				
Urganch sh.	12,3	101,5	12,3	101,5
Xiva sh.	5,7	129,4	5,7	129,4
Bog‘ot	14,3	110,0	14,3	110,0
Gurlan	12,1	160,9	12,1	160,9
Qo‘siko‘pir	13,0	100,2	13,0	100,2
Urganch	39,0	426,2	39,0	426,2
Hazorasp	14,2	105,4	14,2	105,4
Tuproqqał'a	5,2	114,4	5,2	114,4
Xonqa	13,3	86,1	13,3	86,1
Xiva	11,6	179,2	11,6	179,2
Shovot	12,4	123,5	12,4	123,5
Yangiariq	7,8	84,3	7,8	84,3
Yangibozor	13,0	104,0	13,0	104,0

**Yangi qurilish va rekonstruksiya hisobiga turar joylar va ijtimoiy obyektlarni
ishga tushirish**

	<i>Barcha moliyalashtirish hisobidan:</i>			
	<i>Ishga tushirildi</i>		<i>2022- yilning mos davriga nisbatan % da</i>	
	<i>jami</i>	<i>shu jumladan qishloq joylardi</i>	<i>Jami</i>	<i>shu jumladan qishloq joylardi</i>
Turar joylar umumiyl maydoni, ming kv.metr	174,0	156,0	120,4	136,3
ulardan:				
yakka tartibdagi turar joylar	174,0	156,0	120,4	136,3
Namunaviy loyihalar asosida qurilgan yakka tartibdagi turar joylar	-	-	X	X
Poliklinikalar (QVPlarni qo'shgan holda), qatnov	-	-	-	-
Umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktablar, o'quvchi o'mni	-	-	x	X
Suv tarmog'i, km	79,4	71,0	0,0	0,0
Gaz tarmog'i, km	-	-	-	-


Ichimlik suvi tarmoqlari qurilishiga 2023- yilning yanvar-mart oylarida 18,7 mlrd. so'm investitsiya o'zlashtirildi.

Gaz tarmoqlari qurilishiga 2023- yilning yanvar- mart oylarida investitsiya mablag'lari o'zlashtirilmagan.

Qurilish ishlari


2023- yil yanvar- mart oylarida 903,7 mld. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 102,9 % ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari o‘sish sur’ati



Qurilish ishlari bo‘yicha yuqori o‘sish sur’atlari quyidagi shahar va tumanlarda: Hazorasp tumani 126,4 %, Yangibozor tumani 133,9 % va Urganch shaxrida 111,6 % o‘sish kuzatildi.

Aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi (ming so‘mda)



Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari tarkibi

	yanvar-mart	
	2022- y.	2023- y.


Qurilish ishlari, mld. so'm	771,9	903,7
------------------------------------	-------	-------

shu jumladan:

davlat	47,5	58,4
nodavlat	724,4	845,3

Nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan 845,3 mld. so'mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 93,5 %ni (2022- yil yanvar-martiga nisbatan o'sish sur'ati 102,9 %) tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari hajmi (mld. so 'm)



Qurilish ishlari umumiyligi hajmining 67,7 %i binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari, 27,0 %i fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari va 5,3 %i ixtisoslashtirilgan qurilish ishlariga to'g'ri keldi. Shu jumladan, umumiyligi hajmdan 102,9 %i yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish hajmiga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari mulkchilik shakllari bo‘yicha

	<i>Jami, mlrd.so‘m</i>	<i>shu jumladan mulkchilik shakllari bo‘yicha, jami hajmga nisbatan % da</i>	
		<i>davlat</i>	<i>nodavlat</i>
Xorazm viloyati	903,7	6,5	93,5
Urganch sh.	221,0	6,1	93,9
Xiva sh.	56,4	9,3	90,7
<i>tumanlar:</i>			
Bog‘ot	54,5	0,0	100,0
Gurlan	41,1	13,1	86,9
Qo‘suko‘pir	59,1	8,9	91,1
Urganch	73,9	0,0	100,0
Hazorasp	69,2	7,3	92,7
Tuproqqal'a	31,3	19,7	80,3
Xonqa	68,0	5,9	94,1
Xiva	84,9	0,0	100,0
Shovot	53,0	10,7	89,3
Yangiariq	44,8	11,9	88,1
Yangibozor	46,7	6,0	94,0

**Shahar va tumanlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha
qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)**

	<i>Qurilish ishlari, xizmatlar jami</i>	<i>shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari:</i>		
		<i>Bino va inshootlar qurilishi</i>	<i>Fuqarolik qurilishi obyektlari</i>	<i>Ixtisos- lashtirilgan qurilish ishlari</i>
Xorazm viloyati	903,7	611,8	243,7	48,2
Urganch sh.	221,0	133,8	74,1	13,1
Xiva sh.	56,4	27,8	28,1	0,5
<i>tumanlar:</i>				
Bog‘ot	54,5	41,1	11,3	2,2
Gurlan	41,1	18,5	14,1	8,4
Qo‘shko‘pir	59,1	43,3	14,9	0,9
Urganch	73,9	39,5	24,8	9,7
Hazorasp	69,2	58,8	8,5	1,9
Tuproqqal'a	31,3	21,1	9,2	1,0
Xonqa	68,0	49,5	15,3	3,2
Xiva	84,9	62,1	19,9	2,9
Shovot	53,0	44,3	6,1	2,6
Yangiariq	44,8	36,9	7,3	0,6
Yangibozor	46,7	35,3	10,1	1,3

Viloyatda bajarilgan qurilish ishlaringning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy qismi bino va inshootlar qurilishi (611,8 mlrd. so‘m) ga to‘g‘ri kelib, viloyat umumiyligi hajmida 67,7 %ni tashkil qildi. Shu bilan birga, fuqarolik qurilishi (243,7 mlrd. so‘m) ob’ektlari bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlari viloyat umumiyligi hajmining 27,0 %ni hamda ixtisoslashtirilgan qurilish (48,2 mlrd. so‘m) ishlari 5,3 % ni tashkil etdi.

Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Nomoliyaviy aktivlarga kiritilgan investitsiyalar – bu real mablag‘larni yaratishga yo‘naltirilgan investitsiyalar bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi: asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, kapital ta’mirlashga xarajatlar, nomoddiy aktivlarga kiritilgan investitsiyalar (patentlar, litsenziyalar, dasturiy mahsulotlar, er maydonlaridan va tabiiy resurslardan foydalanish huquqlari va boshqalar).

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarga - barcha turdagи qurilish ishlariga qilingan xarajatlar; asbob-uskunalarini montaj qilish bo‘yicha xarajatlar; mashina, asbob-uskunalar (montaj talab etiladigan va talab etilmaydigan), transport vositalari, jihoz va xo‘jalik inventarini sotib olish; boshqa kapital ishlar va xarajatlar kiradi. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar, ilgari boshqa tashkilotlarning asosiy fondlarida hisobga olingan asbob-uskunalar, binolar va inshootlar (yoki ularning ehtiyyot qismlari)ni sotib olishga qilingan xarajatlarsiz keltirilgan.

Chet el investitsiyalari – asosan kelgusida foya olish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi hududidagi korxona va tashkilotlarga kiritilgan chet el kapitali.

Investorlar – yuridik va jismoniy shaxslar bo‘lib, qarorlarni qabul qiluvchi va o‘z mablag‘lari, qarz mablag‘lari yoki jalb qilingan mablag‘larni investitsiya ko‘rinishida investitsion loyihalarga kiritishni amalga oshiruvchi hamda ulardan maqsadli foydalanilishini ta’minlab beruvchi investitsion faoliyat sub’ektlari hisoblanadi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar – bu korxonaga to‘liq egalik qiluvchi yoki korxona aksionerlik kapitalining 10 foizidan kam bo‘lmagan qismini nazorat qiluvchi, ya’ni korxonani boshqarishda ishtirok etish huquqigi ega bo‘lgan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investor yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan kiritilgan investitsiyalar.

Buyurtmachilar – investitsion jarayonning qatnashchilari. Buyurtmachi sifatida investorning o‘zi, shuningdek investor tomonidan amaldagi korxonalarini, binolarni, inshootlarni yangi qurilishi, qayta ta’mirlash, kengaytirish va texnik qayta qurollantirishni amalga oshirishlari uchun vakil etib tayinlangan jismoniy va yuridik shaxslar faoliyat ko‘rsatishlari mumkin. SHu bilan birga buyurtmachi investitsion jarayon qatnashchilarining tadbirkorlik va boshqa faoliyatiga, agarda ular orasidagi shartnomada nazarda tutilmagan bo‘lsa aralashmasliklari lozim.

Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta’mirlash, kapital ta’mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarini montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.